

MUALLIFLIK HUQUQI O'ZBEKISTONDA QANDAY HIMoya QILINADI?

Qarshibekova Umriniso Sharafiddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada intellektual multk, mualliflik huquqi, kontrafakt va qalbaki mahsulot tushunchalari, mualliflik huquqini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, mualliflarning va huquq egalarining huquqlarini himoya qilish masalasi va uning ahamiyati, mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik, Germaniyada mualliflik huquqi himoyasi masalalari keng qamrovda tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *intellektual multk, mualliflik huquqi, qalbaki mahsulot, kontrafakt mahsulot, huquq egasi, mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik, Bern konvensiyasi.*

So'nggi yillarda qulog'imizga eng ko'p chalinayotgan so'zlardan biri intellektual multk va u bilan bog'liq huquqlar bo'lsa ajab emas. Ushbu soha O'zbekiston uchun deyarli yangilik bo'lgan. Shu o'rinda sizda saviol tug'ilishi tabiiy: intellektual multk nima o'zi va unga bo'lgan huquq qanday vujudga keladi?

Mualliflik huquqi tushunchasini ko'pchiligidan asarlarga bo'lgan mualliflik, masalan, roman, qissa, she'r va h.k., sifatida tushunamiz. Vaholangki, inson intellekti natijasida yaratilgan har qanday obyektga nisbatan mualliflik huquqi amal qiladi. Demak, intellektual multk – insonning ijodiy, aqliy faoliyati mahsuli. O'sha mahsulni yaratgan kishida esa unga nisbatan mualliflik huquqi o'z o'zidan vujudga keladi.

Shu o'rinda mualliflik huquqi tushunchasi tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Mualliflik huquqi tushunchasi huquq obyekti sifatida XVIII asr boshida paydo bo'lib, uning maqsadi – insonning intellektual faoliyatini himoya qilish va taqdirlash hisoblanadi. Bevosita muallifning huquqiga daxldor hujjatga bo'lgan ehtiyoj xalqaro miqyosda XIX asr oxirlarida Yevropada vujudga keldi. Buning asosiy sababi xalqaro doirada mualliflarning huquqlarini buzilishlari bilan bog'liq edi. Shu bois bunday huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida, Yevropadagi noshirlar va mualliflarning talablari bilan 1886-yilda tuzilgan "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqida"gi Bern konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu xalqaro konvensiya mualliflarning huquqlarini, ular tomonidan yaratilgan adabiyot hamda badiiy asarlarni himoya qilishni maqsad qilgan. Mazkur xalqaro hujjat keyinchalik intellektual multkning turli shakllarini himoya qiluvchi aktlarning qabul qilinishiga asos vazifasini o'tadi. 1952-yilning 6-sentabrida "Butunjahon mualliflik huquqi haqida"gi Jeneva konvensiyasi, 1961-yilning 26-oktyabrida Rim shahrida qabul qilingan "Fonogramma ishlab chiqaruvchilar, ijrochi-artistlar, fonogramma yaratuvchilar va teleradioeshittirish tashkilotlari manfaatlarini himoya qilish haqida"gi konvensiyasi, 1996-yilning 20-dekabrida Jenevada "BMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi" va boshqa shu kabi normativ hujjatlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustdagli 681-II-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. Mazkur konvensiyaga qo'shilish mamlakatimizda intellektual multk huquqi va uning himoyasi bilan bog'liq yo'nalishda katta o'zgarishlarga



zamin hozirladi. Binobarin, 1996-yilda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun 2006-yilning 20-iyulida xalqaro huquqiy me'yorlarga mos ravishda yangi tahrirda qabul qilindi. Mualliflik huquqi himoyasi, eng avvalo, bu qonundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ham o'z aksini topganki, kodeks o'zida mualliflik huquqi bilan bog'liq tamoyillarni mustahkamlaydi, mualliflik huquqini qo'llash va u bilan bog'liq bo'lgan mulkiy huquqlar, mualliflik huquqi shartnomalari, shaxsiy huquqlarning umumiy huquqiy asoslarini ham beradi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, mamlakatimizning Bern konvensiyasini ratifikatsiya qilishi milliy qonunchilikning xalqaro normalarga muvofiqligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Mualliflik huquqining xalqaro darajadagi asosi hisoblangan Bern konvensiyasi O'zbekiston amal qilish majburiyatini olgan asosiy tamoyillarni belgilaydi. Jumladan, mualliflik huquqini himoya qilish uchun hech qanday rasmiy ro'yxatga olish talab qilinmasligini ta'minlaydigan avtomatik himoya tamoyili va xorijiy asarlarga mahalliy asarlar bilan bir xil darajada himoyalanishni kafolatlovchi milliy rejim tamoyili kabilar.

Bern konvensiyasidan tashqari O'zbekiston mualliflik huquqi bilan bog'liq qonunchilikni yanada takomillashtirish maqsadida Jahon intellektual mulk tashkiloti va boshqa xalqaro shartnomalar bilan faol hamkorlik qilmoqda.

2021-yilda O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish arafasida qonunchilikka TRIPS kelishuvi kabi xalqaro shartnomalarga muvofiqlashtirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarni aks ettiruvchi o'zgartishlar kiritdi. Ushbu o'zgartishlar mualliflik huquqining amal qilish muddatini muallif yoki oxirgi hammualif vafotidan keyin 50 yildan 70 yilgacha uzaytirish, ijodkorlarni xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilishni kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda mualliflik huquqi to'g'risidagi oqnunchilikni qo'llash va bunday munosabatlarni tartibga solish bilan Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk departamenti shug'ullanadi. Departamentning vazifalariga mualliflik huquqini ro'yxatga olishni boshqarish kiradi. Departament mualliflarning huquqlarini himoya qilish, huquq buzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash va nizolarni hal qilish, mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlarning xalqaro me'yorlarga mos kelishi va texnologik taraqqiyotga moslashishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunga kelib mualliflik huquqlarining buzilishi anchayin dolzarb. Savol tug'ilishi mumkin: mualliflik huquqini buzishdan uni buzuvchi shaxsga qanday naf bo'lishi mumkin?

Albatta, eng birinchi maqsad moddiy manfaatdorlikda ko'rindi. Boshqa shaxsning intellekti mahsulidan hech qanday harakat qilmasdan, qiyinchiliksiz foyda olish daromad topishning oson yo'li sifatida qaraladi. Zamona zayli bilan bog'liq yana bri jihat borki, so'nggi texnologiyalar ma'lumotlarni ko'paytirish va tarqatish jarayonini oson, shu bilan birga arzon ishga aylantirib qo'ydi. Buning natijasida esa

Ilgari mualliflar va qonuniy ishlab chiqaruvchilar tabiiy himoyaga ega edilar. Bular: texnikaning murakkabligi, jarayonning mashaqqatliligi hamda olingan nusxaning tannarxi



ancha qimmatga tushishi kabilar edi. Endilikda esa hammasi o'zgardi. Nusxalar arzon, sotuvlar original narxida bo'lishi mumkin – shundan qo'shimcha foyda yuzaga keladi¹.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, mualliflik huquqining buzilishi bilan bog'liq munosabatlar o'zida ancha murakkablikni namoyon qiladi. Chunki bunday huquqbuzarlikni aniqlash aksariyat hollarda huquqi buzilgan shaxsning bevosita murojaati orqali aniqlanadi. Biror shaxs tomonidan yaratilgan mualliflik huquqi obyektini boshqa shaxs tomonidan huquq egasining ruxsatisiz o'z nomidan ishlab chiqarilishi yoxud chop etilishi kabi holatlarda eng birinchi navbatda muallifning o'zi xabardor bo'lishi va tegishli vakolatli organga murojaat qilish orqaligina huquqlarini himoya qilishi mumkin. Bunday huquq buzilishlaridan eng keng tarqalganlari kontrafakt hamda qalbaki tovarlar ishlab chiqarilishi jarayoni hisoblanadi.

Shu o'rinda ommaga tushunarli bo'lishi uchun bu ikkala tushunchaning bir-biridan o'zaro farqini aytib oc'tsak. Kontrafakt – bu huquq egasining tovar belgisiga bo'lgan huquqlarini buzish hisoblanib, iste'molchini adashtirish darajasida tovar nomini o'zgartirish sanaladi. Kontrafakt barcha mahsulotlar orasida mavjud. Sababi tadbirkor oson daromad ko'rish uchun ko'p yillik tajribaga ega, xaridorlar ishonchini qozongan va bozorda o'z o'rnini topgan mahsulotga o'xshatib tovar chiqaradi. Afsuski, sotib oluvchi har doim ham sotib olayotgan tovarining nomi to'g'ri yozilganiga, ishlab chiqaruvchisi haqida ma'lumotlar to'liq ekaniga e'tibor berishmaydi va aldanib qolishadi². Qalbaki mahsulot esa tarkibi yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan (haqiqiyligi yoki kelib chiqish manbayi ataylab, firibgarlik yo'li bilan qalbaki markirovkalangan) mahsulot hisoblanadi. Tushunarliroq qilib aytadigan bo'lsak, mahsulotning sifat ko'rsatkichlariga ahamiyat qilmasdan mahsulotni aynan shunday nom ostida ishlab chiqarish tushuniladi.

Qalbaki mahsulot ishlab chiqarishdan ham asosiy maqsad hech qanday izlanish va qiyinchiliklarsiz, o'zganing mehnatini suiiste'mol qilgan holda foyda olish, daromad qilish. Qalbaki mahsulotning tarkibi asl mahsulot bilan solishtirganda osmon bilan yercha farq qiladi.

Shu sababdan bu mahsulotdan foydalangan mijoz o'z kutganidek natija olmaydi. Hozirgi kunda kontrafakt va qalbaki mahsulotlarga qarshi butun jahonda kurash olib borilmoqda. Bunday ishlab chiqarish yashirin iqtisodiyotni ham o'zida namoyon qilib, mamlakatlar iqtisodiyotga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababdan bunday ishlab chiqarishga qarshi keskin kurash olib borish muhim, bu ham davlat uchun, ham uning fuqarolari manfaati uchun xizmat qiladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 20-avgustda imzolangan "Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasing ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 709-soni Qonuniga muvofiq mualliflik huquqiga oid bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunga muvofiq muallifga mualliflik huquqi va turdosh huquqlari buzilgan taqdirda, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslardan zarar qoplanishi o'rniga bazaviy

¹ https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/mualliflik_huquqlarini_qanday_himoyalash_mumkin

² <https://crpt-turon.uz/info/news/tovar-belgisi-va-raqamli-markirovka-tizimi-kontrafakt-mahsulotlar-bilan-kurashda-qanday-ahamiyatga-ega>



hisoblash miqdorining 20 baravaridan 1000 baravarigacha miqdorda tovon to'lanishini talab qilish huquqi berildi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish huquqbazarligi uchun jarim miqdorining oshirilishi ham bunday huzuqbazarliklar sonining kamayishiga sabab bo'ladi.

Qonunchilikda mualliflik huquqini buzganlik uchun aybdor shaxslarning belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishlari alohida ta'kidlab o'tilgan. Bunday huquqbazarlik uchun aybdor shaxs fuqaroviylari, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 155-moddasida faqatgina o'zga shaxsning elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturi va ma'lumotlar bazasini o'z nomidan chiqarish yoxud qonunga xilof ravishda nusxa olish uchun javobgarlik belgilangan edi. 2019-yilda kodeksga alohida 177¹-modda – mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish haqidagi norma kiritildi.

Mazkur qoidaning kodeksga kiritilishi qonunchilikni qo'llashdagi turli tushunmovchilik va anglashilmovchiliklarga yechim yasadi. Moddada asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish yoxud asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, shuningdek mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish, — asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarini hamda boshqa huquqbazarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi mustahkamlab qo'yilgan.

Xuddi shunday huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Shu o'rinda huquqi buzilgan shaxs, ya'ni huquq egasi huquqbuzardan talab qilishi mumkin bo'lgan holatlarga ham qonunda keltirilganidek qisqacha to'xtalib o'tsak. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 65-moddasida keltirilishicha, muallif yoki mutlaq huquqning boshqa egasi huquqbuzardan quyidagilarni talab qilishga haqli: huquqlarni tan olishini; huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to'xtatishini; huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagagi sharoitlarida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarning o'rnini qoplashini.

Agar huquqbazar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni buzish oqibatida daromadlar olgan bo'lsa, huquq egalari boshqa zararlar bilan bir qatorda boy berilgan foydani bunday daromadlardan kam bo'lмаган miqdorda qoplashini; zararlar yetkazilishi faktidan qat'i nazar, huquqbazarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan



kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniغا bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lган tovонни to'lashini; ushbu Qonunda belgilangan huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lган, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar ko'rishini.

Shu o'rinda xorij tajribasiga yuz burib, Germaniyada mualliflik huquqi va uning himoyasi haqida so'з yuritamiz. Biz bilgan Germaniya dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri ekani hech birimizga sir emas. Har tomonlama rivojlangan deyilgan huquqlar himoyasi jihatи ham qamrab olinadi. Germaniyada mualliflik huquqi xalqaro huquqning barcha umume'tirof etilgan me'yorlariga mos keladi. 2003-yilda qabul qilingan "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi qonun bu sohadagi asosiy qonun hisoblanib, boshqa qabul qilinajak qonunosti hujjatlarga asos vazifasini o'taydi. Ushbu davlatda ijodiy ishning ma'lum shaklda ifodalangan har qanday mahsuli himoyalangan. Mualliflik huquqi huquq egasida asar yaratilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Himoya muddati muallif vafot etganidan keyin 70 yil davomida amal qiladi, shuning uchun muallifning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislari mulkiy huquqlardan foydalanishlari mumkin.

O'z asarining himoyasini talab qilish uchun muallif uni o'zi yaratganini tasdiqlovchi dalillarga ega bo'lishi kerak. Muallif huquqi to'g'risidagi qonun asarni ro'yxatga olishni nazarda tutmaydi, shuning uchun muallif quyidagilardan biricha yo'l tutishi kerak:

- asarning yaratilish faktini notarius orqali sertifikatlash;
- Germaniya va Yevropa Ittifoqidagi mualliflik jamiyatlari va gentliklari orqali huquqlarni ta'minlash;
- huquqlarni sudda isbotlash.

Germaniyada mualliflik jamiyatlari deb ataluvchi jamiyatlar mavjud bo'lib, muallif va boshqa shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarni tuzishda xizmat ko'rsatadi, bitimlarni o'zlarining reyestrlarida tasdiqlaydi, shuningdek, shartnoma buzilgan taqdirda himoya choralarini ko'rishga yordam beradi. Mana shunday jamiyatlarni bizning mamlakatimizda ham tuzilishi mualliflik huquqi bilan bog'liq shartnomalarning taraflar tomonidan buzilishi holatlarini kamaytiribgina qolmasdan, shartnoma tuzuvchilar uchun anchagina yengillik va qulaylik ham yaratgan bo'lar edi. Boisi bizning davlatimizda intellektual mulk huquqi sohasi endi rivojlanib kelayotgan soha, shartnoma tuzishga ko'maklashuvchi huquqshunoslarning hammasi ham bu sohani yaxshi tushunavermaydi. Shu sababdan mualliflik huquqini biladigan huquqshunosni qidirib topish shartnoma tuzuvchilarga qiyin kechadi, mualliflik jamiyatlarining tuzilishi esa bunday muammoga yechim yasaydi.

Mualliflik huquqini buzganlik uchun Germaniyada qoidabuzarga nisbatan quyidagi choralar qo'llanilishi mumkin:

- kompensatsiya to'lash, birovning asaridan noqonuniy foydalanish yoki tarqatishni to'xtatish, mualliflik huquqini o'zlashtirib olish faktini rad etish to'g'risida yozma talablar yoki da'volar qo'yish;
- zararni qoplash, pul kompensatsiyasini undirish, litsenziya shartnomalarini bekor qilish uchun sudga murojaat qilish;



- Germaniya milliy qonunchiligi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish – aybdorlar qamoq jazosiga tortilmasa ham, katta miqdorda jarima to'lashlari kerak bo'ladi³.

Xulosa o'rnida shuni aytal olamizki, texnologiya tarqqiyoti kundan kunga jadallahib, rivojlanib borayotgan hozirgi kunda mualliflar huquqi masalasi dolzarblashib boraveradi. Qaysiki jamiyatda mualliflar, ijodkorlar o'zlarinig huquqlari hech so'zsiz himoya qilinishiga ishonsalar, o'sha jamiyatda asarlar va ijodlar, yaratish va yangilanishlar ortadi. Demak, qonunchilik ham, mualliflar huquqlarining himoyasi ham bir joyda to'xtab qolishi aslo mumkin emas. Shunday ekan, mualliflik huquqi masalasi davlatimiz oldidagi muhim vazifalardan bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2021-yil
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 2019-yil
4. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 2006-yilning 20-iyul
5. O'zbekiston Respublikasi "Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasing ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 709-sonli Qonuni 2021-yil 20-avgust
6. www.lex.uz
7. www.norma.uz
8. www.crpt-turon.uz
9. www.profpatent.ru

³ www.profpatent.ru